



CHEVROLET DAMAS MAX VA DAMAS MOVE



Together
let's drive™

Chevrolet Damas Max

Damas Max – kundalik yumushlar va doimiy foydalanish uchun yaratilgan qulay va ishonchli tijorat avtomobili. Model yuk tashishga yoʻnaltirilgan, samaradorlik hamda shahar va shahar atrofi sharoitlarida foydalanishga moslashtirib ishlab chiqilgan.

Asosiy ustunliklaridan biri – 3,05 m³ ishchi hajm va 650 kg gacha yuk koʻtara oladigan keng yukxona. Bunday koʻrsatkichlar tovarlar, uskunalar va ish materiallarini ortiqcha qatnovlarsiz tashishga imkon berib, vaqt va resurslarni tejaydi.

Yuk boʻlimi ikki yon eshik va orqa eshik orqali, yaʼni uch tomonlama ochilishi har qanday sharoitda yuklarni tez va qulay ortish va tushirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, shahar muhitida, omborlarda va harakat uchun joy cheklangan hududlarda ishlashda qoʻl keladi.



Chevrolet Damas Max

Kabina bilan yuk bo'limi orasidagi ajratma qism xavfsizlikni oshiradi va yuk makonini ishonchli tarzda izolyatsiya qiladi. Puxta joylashuv va mustahkam konstruktsiya sababli yuklarni joylash qulay, tashish esa xavfsiz bo'ladi.

Damas Max 1.5 DOHC benzin dvigateli, mexanik olti pog'onali uzatmalar qutisi va orqa g'ildiraklar bilan jihozlangan. Bunday konfiguratsiya sababli avtomobil bosim ostida barqaror ishlaydi, harakatlanish esa ishonchli va bo'ladi.

Tashqi o'lchamlari ixcham, ishchi sig'imi unumdor Damas Max shahar va shahar atrofi yo'nalishlarida foydalanish uchun juda qulay. Avtomobil zich harakat oqimida oson harakatlanishi bilan birga to'liq funksional ish quroli bo'lib xizmat qiladi.

Damas Max – natijaga ishlaydigan tijorat avtomobili. U jarayonlarni optimallashtirishga, unumdorlikni oshirishga va biznesdagi kundalik vazifalarini ishonch bilan hal etishga yordam beradi.



Chevrolet Damas Move

Chevrolet Damas Move – komplektatsiyasiga ko‘ra 7–8 o‘rindiqqa ega, yo‘lovchilarni kundalik tashish uchun mo‘ljallangan avtomobil. Ushbu miniven amaliy foydalanishga mo‘ljallangan bo‘lib, tashqi o‘lchamlari ixcham, ichki saloni esa keng qilib ishlangan.



Avtomobil ishchi hajmi

Avtomobil ishchi hajmi 1 485 sm³ bo'lgan benzin dvigateli hamda mexanik olti pog'onali uzatmalar qutisi bilan jihozlangan. Uning konstruksiyasi va umumiy joylashuvi shahar va shahar atrofi sharoitlarida doimiy foydalanish uchun moslashtirilgan.

Model kundalik safarlar uchun zarur bo'lgan faol va passiv xavfsizlik tizimlarining asosiy to'plamiga, shuningdek, oddiy va tushunarli boshqaruv yechimlariga ega. Chevrolet Damas Move har kuni qulay va ishonchli harakatni ta'minlashga moslashgan.



IMKONIYATLAR

Damas MAX eksteryeri tijoriy maqsadlarda foydalanishdagi ehtiyojlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Vazmin va funksional dizayn avtomobilning ishchi xarakteri hamda kundalik foydalanishga yo'naltirilganiga urg'u beradi.

Tashqi o'lchamlari ixcham, ishchi sig'imi unumdor Damas Max shahar va shahar atrofi yo'nalishlarida foydalanish uchun juda qulay. Avtomobil zich harakat oqimida oson harakatlanishi bilan birga to'liq funksional ish quroli bo'lib xizmat qiladi.

Puxta ishlangan kuzov konstruksiyasi Damas MAX'ni biznes uchun qulay va samarali vositaga aylantiradi. Yuk bo'limi ikki yon eshik va orqa eshik orqali, ya'ni uch tomonlama ochilishi har qanday sharoitda yuklarni tez va qulay ortish va tushirishga yordam beradi.

Avtomobilning tashqi ko'rinishida ortiqcha elementlar yo'q, har bir detal amaliy vazifaga ega. Galogen faralar yo'lni yaxshi yoritadi, 14 dyuymli po'lat g'ildirak diskalari konstruksiyaning ishonchlilikini oshiradi, kuzov rangidagi old bamper esa tartibli va professional tashqi ko'rinishni hosil qiladi.

Vazmin va ishonchli Damas MAX foydalanish uchun yaratilgan va barqaror natijaga yo'naltirilgan tijorat avtomobili.





Interyer

Damas MAX

interyeri kunning katta qismini rulda o'tkazadiganlar uchun yaratilgan. Avtomobil kabinasi qulay, foydalanishga oson va samaradorlikka yo'naltirilgan bo'lib, vazifalarni bajarishda diqqatni jamlash va ish sur'atini yuqori darajada ushlab turishga yordam beradi.

Haydovchi ish joyi eng mayda jihatlarigacha puxta o'ylangan.



DETALLARGA E'TIBOR

Barcha boshqaruv elementlari mantiqiy va haydovchiga qulay joyda joylashtirilgan, asboblari paneli oson o'qiladi, avtomobilni boshqarish esa intensiv ekspluatatsiya sharoitida ham sodda va tushunarli bo'ladi.

XAVSIZ VA QULAY

Kabina ikki kishiga mo'ljallangan bo'lib, yuk bo'limidan mustahkam ajratma bilan ajratilgan. Bu yechim xavfsizlik darajasini oshiradi, shovqin kirishini kamaytiradi va ishchi zona bilan yuk makonini aniq ajratishga imkon beradi.

Damas MAX interyeri vazmin va funksional uslubda yaratilgan. Ortiqcha elementlar yo'q, oson qabul qilinadi va kundalik ishlar va avtomobilning asosiy vazifasi – tijoriy maqsadda foydalanish va barqaror natija olish uchun to'liq mos keladi.

INTERYER TEXNOLOGIYALARI

Damas MAX standart darajada konditsioner, Bluetooth orqali ulanuvchi AM/FM audiotizim (ikkita karnayli), raqamli soat va taxometr bilan jihozlangan. Ushbu to'plam sababli yilning istalgan faslida har bir safar yanada qulay va samarador bo'ladi.



Damas Max xavfsizligi

Damas MAX xavfsiz va har bir safarda ishonch beruvchi avtomobil

U faol va passiv xavfsizlikning zamonaviy tizimlari bilan jihozlangan bo'lib, shahardagi zich harakatlar vaqtida xavf-xatarlarning oldini olishga yordam beradi hamda yuklarni kundalik tashish jarayonida ishonchli himoyani ta'minlaydi.

Puxta o'ylangan konstruktsiya va elektron yordamchi tizimlar avariya holatlarining oldini olishga xizmat qiladi, vaqt yo'qotilishini kamaytiradi va biznes barqarorligini ta'minlaydi. Chevrolet Damas MAX bilan har bir vazifa xavfsizlik va ishonch bilan bajariladi.



Bloklanishga qarshi tormoz tizimi (ABS)

Keskin tormozlash paytida g'ildiraklarning bloklanib qolishining oldini oladi.

To'liq yuklangan holatda ham avtomobil boshqaruvchanligini saqlashga yordam beradi.



Old havo yostiqchalari (2 dona)

Old tomondan to'qnashuvda haydovchi va yo'lovchini himoya qiladi.

Avariya oqibatlarining oldini oladi.



Tormoz kuchini elektron taqsimlash tizimi (EBD)

Tormoz kuchini o'qlar o'rtasida optimal tarzda taqsimlaydi.

Yuk tashish jarayonida barqaror va kutilgan darajada tormozlashni ta'minlaydi.



Uch nuqtali xavfsizlik kamarlari

Harakat vaqtida haydovchi va yo'lovchini ishonchli tarzda makham ushlaydi.

Safar davomida passiv xavfsizlik darajasini oshiradi.



Elektron barqarorlik tizimi (ESC)

Manevrlar vaqtida va sirpanchiq yo'llarda avtomobilning barqarorligini saqlashga yordam beradi.

Murakkab yo'l sharoitlarida haydovchining ishonchini oshiradi.



Kabina va yuk bo'limi o'rtasidagi ajratma

Yuk tashish jarayonida haydovchi va yo'lovchini himoya qiladi.

Ishchi makonning xavfsizligi va izolyatsiyasini kuchaytiradi.



Damas Move



Damas Max

Texnik xususiyatlari

DVIGATEL VA TRANSMISSIYA

Dvigatel turi	Benzinli
Ishchi hajmi	1.5
Gaz taqsimlash mexanizmi	DOHC, 16 klapanli
Silindrlar soni	4 ta, qator joylashuv
Dvigatel joylashuvi	Old tomonda
Maksimal tezlik	103 ot kuchi, 5 800 ayl/d
Aylantiruvchi moment	147 N·m, 3 600 ayl/d
Yoqilg'i turi	Benzin (oddiy)
Privod	Orqa
Uzatmalar qutisi	Mexanik, 6 pog'onali

YURISH QISMI VA RUL BOSHQARUVI

Rul boshqaruv	Elektr kuchaytirgich (EPS)
Old osma	Mustaqil, McPherson
Orqa osma	Yarim elliptik reszorlar

TORMOZ TIZIMI

Old tormozlar	Ventilyatsiyali diskli
Orqa tormozlar	Barabanli
Tizimlar	ABS + tormoz kuchini elektron taqsimlash tizimi (EBD)

GABARIT O'LCHAMLAR

Uzunlik	4 425 mm
Kenglik	1 670 mm
Balandlik	1 860 mm
G'ildirak bazasi	2 850 mm
Minimal yo'l oralig'i (klirens)	165 mm

MASSA VA SIG'IM

Jihozlangan massa	1 200 kg
To'liq massa	1 920 kg
Yuk ko'tarish quvvati	720 kg
Yuk bo'limining foydali hajmi	3,1 m ³
Yoqilg'i baki hajmi	45 l

EKSPLUATATSION MA'LUMOTLAR

O'rindiqlar soni	2
Eshiklar soni	5
Kuzov ranglari	Oq, Kumushrang

Texnik tavsiflar ishlab chiqaruvchi ma'lumotlari asosida keltirilgan bo'lib, oldindan ogohlantirilmadan o'zgartirilishi mumkin. Haqiqiy yurish zaxirasi va zaryadlash vaqti ekspluatatsiya sharoitlari, haydash uslubi kabi boshqa omillarga bog'liq.



UzAuto

MOTORS



CHEVROLET

UzAuto Motors AJ, O'zbekiston Respublikasi, 100060, Toshkent,
Mirzo Ulug'bek tumani, Amir Temur ko'chasi, 13-uy.
Email: info@uzautomotors.com
Veb-saytlar: www.uzautomotors.com, www.chevrolet.uz
Call-center: +998 (78) 141-77-77

Ushbu buklet bosmaxonaga topshirilgan vaqtda amalda bo'lgan ma'lumotlar asosida tayyorlangan. Biroq UzAuto Motors kompaniyasi mahsulotlarni uzluksiz takomillashtirish va yaxshilash siyosatiga amal qilgani sababli, ushbu bukletda keltirilgan modellarning texnik xususiyatlari, ranglari hamda komplektatsiya elementlarini istalgan vaqtda, qo'shimcha ogohlantirishsiz o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Modellar ranglari va komplektatsiyalarining kombinatsiyalari faqat ularning amaldagi mavjudligiga qarab taklif etiladi. Batafsil ma'lumotni UzAuto Motors'ning rasmiy dilerlik markazlaridan yoki www.uzautomotors.com saytida olishingiz mumkin.